

MOVIY KÖZMUNCHOQ...

Dilshodbek Xudayberdiyev Hasan ugli

Qoraqalpogiston respublikasi Ullubog ofy 8 -son umumiy òrta talim maktabi

SHOIR BO'LISH JUDAYAM QIYIN EKAN

Men judayam qiynalyapman. Ezilib ketyapman. Juda ko'ngilchanman negadir. Xudbinligim ham bor gohida, yaxshi tomonlama.

Men bilan dildan suhbatlashgan matematiklar, ya'ni adabiyotga qiziqsada, she'rga qiziqmaydigan, she'r yozmaydigan insonlar, meni esi yo'q jinni, dunyoqarashi past, bir qolipning ichida qolib ketgan telba deya o'ylashadi. G'azablanmayman. Qabul qildirganman qalbinga bunga o'xshash insonlar tomonidan yetgan ginalarni, do'q-u kamsitishlarni... Ustimdan qancha kishi kuldi-ya, "Oshiq yigit- deb o'zimga ot qo'yganimga...

Biroqkim, nolimayman...

Men o'sha insonlarga nimani tilayman, bilasizmi? Shoir bo'lishni, shoirlik hissini tuyishni, shoirlik baxtini his qilishni. Qanaqadir hislar ko'nglidan o'tib, menga o'xshab yuragi yo'q odamdek, yuragi samoni sog'inayotgan odamdek, o'zlariga sig'may ketishlikni, bir gap bilan aytganda, shoirlarning ko'nglidan kechadigan, jamiki hislarni his qilishliklarini xohlayman. O'shanda, balki she'rlarning gadosi bo'lar edi, barcha...

Yaxshiyam borsan Robbim. Yaxshiyam borsan qalamim.

Yaxshiyam borsan dardlarim.

Bu hayotda, shoirlar soni cheklangan. Men o'zimni hali-veri shoir deb bilmayman, shunchaki ijodkor deb bilaman. In Sha Alloh, kelajakda, o'sha hammaga berilmagan, menga berilgan hayratomuz hislarim, meni kimdir qilishiga ishonaman!!!

Biroq, shoir bo'lish, baribiram qiyin...

Dilshod Hasan

Muhabbat sindirdi qalbimni netay,
Siqilib yig'lashga qaylarga ketay,
Yorimning kulgichin qanday unutay,
Sevgilim asragin, moviy közmunchoq.

Yorimning könqlidan ketdim haydalib,
Muhabbat qildida, qalbimni mayib,
Men qoldim yig'lanib, ketding jilmayib,
Sevgilim asragin, moviy közmunchoq.

Taqdirim kulmadi, shörlük peshonam,
Senga uy bölmas yor, endi koshonam,
Yig'lama bolam deb, ovutar onam,

Sevgilim asragin,moviy közmunchoq.

Bilmadim netayin könikmoq uchun,
Ösha qalamqoshni unutmog uchun,
Singan bu köngilni tiritmog uchun,
Sevgilim asragin,moviy közmunchoq.

Köz tikib qoldim-a yorim yöliga,
Közmunchoq taqqandim oppoq qöliga,
Özgasi erishdi bugun gulimga,
Sevgilim asragin moviy közmunchoq.

Kuzatdim Sevgilim,dard bilan seni,
Birga qoldirdingda dard bilan meni,
Unutmog qiyinda yorginam seni,
Sevgilim asragin moviy közmunchoq.
Ayol..

Ertalab ochadi qora közlarin,
Ajinlar bezabdi qirmiz yuzlarin,
Farishta eshitar xatto sözlarin,
Uyiga keladi,bemajol behol,
Orzusi dardlarga kömilgan Ayol.

Vaqtı yöq labiga surish qizil rang,
Ertalab közlarin ochadi arang,
Bardoshlar haqida ayoldan sörang,
Yuzlarin siypalar tongda bir hilol,
Orzusi dardlarga kömilgan ayol.

Xiyonat qilmaydi hech ham yoriga,
Könikib yashaydi yöği boriga,
Bir bora boqingiz uning holiga,
Unga hech qanday ish kelmaydi malol,
Orzusi dardlarga kömilgan Ayol.

Sochlarin tarashga vaqti topilmas,
Köp narsa söramas,mehr bölsa bas,
Balki ,unda bordir, balki,öy havas,
Bardoshiga dunyo ham qoldi lol,
Orzusi dardlarga kömilgan Ayol.

Ertalab chiqadi dalaga tomon,
Holiga achinmas bōlsa-da yomon,
Yori va bolasi bōlsa soғ omon ,
Dunyolar köngilga siғar bemalol,
Orzusi dardlarga kömilgan Ayol.

Azobga chidaydi bardoshlar berib,
Tinmayin ishlaydi yugurib yelib,
U nima kördi axir, ayol bölib,
Nolimas ogrinib bōlsada bemor,
Orzusi dardlarga kömilgan Ayol.

Boshimni egaman ayol poyiga,
Hurmatin qilaylik yetib qadriga,
Dunyolar lol qolar ayol sabriga,
Dardini qilmaydi hech kimga oshkor,.
Orzusi dardlarga kömilgan Ayol.

"Dòstlik "haqida

Azaldan aytishadi chin dòst topish igna bilan quduq qazishdan ham qiyin deyishadi.

Hayotda har kim òziga mos dòst topish uchun ancha mashaqqat kerak. Harakteti, mentalitet, va boshqa narsalar yaxshi bōlish kerak Jaloliddin Manguberdi qanchalik buyuk shaxs bōlgan lekin, U buyuk bōlaversin yonida dòsti bōlmagan. Otasi, ukalari undan indamay yuz burishgan. Shuning uchun dòst va yor tanlashda adashmaslik kerak. Chunki dòst ham bir kun koringga yaraydi, Kafan kiyganingda yoring Esa òlguningcha sen bilan birga.

Dilshod Hasan 2023-yil